



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 54 sahifa,
noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННЫХ СТУДЕНТОВ КАК УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА.....	8
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
PEDAGOGLARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA USLUBIY TAYYORGARLIGINING O'RNI	12
Toshmatov Boboxon Egamshukurovich	
BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR.....	16
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna	
ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ КОНСУЛЬТАЦИЯ: СОВРЕМЕННАЯ ПРАКТИКА, ЗАДАЧИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	19
Раупова Шохида Ахроровна	
ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ОБУЧЕНИЮ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ: ЗАДАЧИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	22
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
ИССЛЕДОВАНИЕ ЦЕЛОСТНОГО МЕХАНИЗМА ПСИХИЧЕСКОЙ РЕГУЛЯЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	26
Шарипова Муштари Толибжон кизи	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА: РЕЗУЛЬТАТЫ ПИЛОТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ	33
Рахманова Диляра Рустемовна	
ICHKI ISHLAR ORGANLARIGA XIZMATGA QABUL QILINGAN SHAXSLARNI KASBIY FAOLIYATGA MOSLASHTIRISH JARAYONINI MOHIYATI	36
Zaribov Zafarbek Ravshonbekovich	
O'SMIRLAR XULQ-ATVORIDAGI IJOBIY FAZILATLAR SHAKLLANISHIDA IJTIMOYIY-ETNOPSIXOLOGIK OMILLARNING NAZARIY ASOSLARI.....	41
Djurayev Tashpulat Saxiyevich	
IRODAVIY FAOLLIKNI TADQIQ ETISHDA JINS XUSUSIYATLARINING DETERMINANTLARI	45
Jo'rayev O'tkir Tashpulatovich	
МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MAS'ULIYAT HISSINING SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	50
Norimbetova Nilufar Turg'un qizi	



O'SMIRLAR XULQ-ATVORIDAGI IJOBIY FAZILATLAR SHAKLLANISHIDA IJTIMOYIY- ETNOPSIXOLOGIK OMILLARNING NAZARIY ASOSLARI



Djurayev Tashpulat Saxiyevich

Termiz davlat universiteti
 Psixologiya fanlari nomzodi dotsent
 Manzil: O'zbekiston, 190111, Termiz shahri
 otkir_0606@mail.ru
 ORCID: 0000-0003-4602-0309
 SCOPUS ID 000000000

Annotatsiya: Ushbu maqola o'smirlar xulq-atvoridagi ijobiy fazilatlar shakllanishida ijtimoiy va etnopsixologik omillarning nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Ishda nazariy manbalar va tadqiqotlar tahlili orqali o'smirlarning ijobiy xulq-atvori, ijtimoiy muhit, oilaviy va maktabiy ta'sirlar hamda milliy-etnopsixologik xususiyatlar bilan bog'liqligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari ijobiy fazilatlar shakllanishini tushunishga yordam beruvchi ilmiy konsepsiyalar va nazariy modellarni taqdim etadi hamda pedagogika va psixologiya sohasida nazariy asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: o'smir, xulq-atvor, fazilat, ijtimoiy omillar, tadqiqot, tarbiyaviy, motivatsion va emotsional jarayonlar.

Abstract: This article is devoted to the study of the theoretical foundations of the formation of positive behavioral traits in adolescents, focusing on the role of social and ethnopsychological factors. Based on the analysis of theoretical sources and research, the work highlights the relationship between adolescents' positive behavior, social environment, family and school influences, as well as national-ethnopsychological characteristics. The results of the study provide scientific concepts and theoretical models that help to understand the formation of positive traits and can be used as a theoretical basis in the fields of pedagogy and psychology.

Key words: Adolescent, behavior, trait, social factors, research, educational, motivational processes, emotional processes.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению теоретических основ формирования положительных качеств поведения подростков в контексте социальных и этнопсихологических факторов. В работе на основе анализа теоретических источников и исследований рассматривается взаимосвязь положительного поведения подростков с социальным окружением, влиянием семьи и школы, а также с национально-этнопсихологическими особенностями. Результаты исследования представляют собой научные концепции и теоретические модели, способствующие пониманию процесса формирования положительных качеств, и могут быть использованы в качестве теоретической основы в педагогике и психологии.

Ключевые слова: подросток, поведение, качество, социальные факторы, исследование, воспитательный, мотивационные процессы, эмоциональные процессы.

KIRISH

Hozirgi davrda psixologiya sohasida insonning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda farqlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Inson kamolotining ushbu yo'nalishlari o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlariga ega. Masalan, jismoniy yetilish jarayoni asosan anatomik va fiziologik

tuzilmalarning shakllanishi orqali namoyon bo'lsa, ruhiy taraqqiyot inson ongining, ehtiyoj va hissiyotlarining, shuningdek, qobiliyat va motivatsion tizimining takomillashuvi shaklida kechadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz va xorijiy psixologiya fanida shaxsning ma'naviy rivojlanishi ko'pincha axloqiy faollik bilan uzviy bog'liq holda talqin etilmoqda. Shaxsning ma'naviy yuksalish darajasini aniqlash uchun, eng avvalo, ushbu yuksalishni baholashga xizmat qiluvchi mezonlarni aniqlab olish zarur. Shu bois "mezon" tushunchasining mazmunini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik adabiyotlarda ma'naviy-axloqiy rivojlanishning mezonlariga oid turli yondashuvlar mavjud. Odatda ma'naviy hodisalarni baholashda ularning maqsad, ideal va ijtimoiy g'oyalar bilan uyg'unlik darajasi asosiy mezon sifatida olinadi. Biroq bu jarayonda ayrim murakkabliklar ham kuzatiladi. Masalan, shaxsning xulq-atvori uning shaxsiy maqsadlariga to'liq mos bo'lishi mumkin, biroq bu holat jamiyat yoki ijtimoiy guruh manfaatlariga zid kelishi ehtimoli mavjud. Bunday vaziyatlarda, tabiiyki, ijtimoiy guruh va jamiyat manfaatleri ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O'smirlik davrida ijobiy xulq-atvorni shakllantirish murakkab psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning individual rivojlanishi, o'z-o'zini anglash darajasi, ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda jismoniy va emotsional holatining barqarorlashuvida muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonni o'rganish o'smirlarning xulq-atvorini shakllantiruvchi psixologik omillarni aniqlashni nazarda tutadi. Xususan, motivatsion tizim, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati, ijtimoiy rollarni qabul qilish va jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashish darajasi asosiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida qaraladi.

O'smirlarning ijobiy xulq-atvorini rivojlantirishda oila muhitining qo'llab-quvvatlashi, ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy faoliyat, shuningdek, ijtimoiy institutlarning hamkorlikdagi ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Psixologik yondashuvlar va zamonaviy tarbiyaviy metodlar asosida o'smir shaxsining xulq-atvori ijobiy yo'nalishga yo'naltiriladi, bu esa ularning ruhiy barqarorligi va sog'lom ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'smirlik davrida ijobiy xulq-atvorni shakllantirish murakkab va ko'p qirrali psixologik jarayon bo'lib, shaxsning individual rivojlanish bosqichlari, o'z-o'zini anglash, ijtimoiy moslashuv va emotsional barqarorlik kabi jihatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jarayon o'smir shaxsining ijtimoiy yetuklikka intilishi, o'z qadr-qimmatini anglash va ijtimoiy rollarni egallash jarayonida faol namoyon bo'ladi.

E.Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davri "identifikatsiya — rol chalkashligi" bosqichi bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda o'smir o'z "Men"-konsepsiyasini shakllantiradi, jamiyatdagi o'rnini aniqlashga intiladi va ijtimoiy rollarni o'zlashtirish orqali o'z shaxsiy identitetini mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, o'smirda ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish uning ijtimoiy moslashuv darajasi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

A.Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi esa ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda kuzatish, o'rnak olish va modelga taqlid qilish mexanizmlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. O'smirlar o'z atrofidagi ota-onalar, o'qituvchilar, do'stlar va ommaviy axborot vositalaridagi qahramonlar orqali ijtimoiy xatti-harakatlarni kuzatadi, ularni o'z xulqida qayta aks ettiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy muhitning ijobiy modeli o'smirning xulq-atvori shakllanishida muhim determinanta sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqsad: O'smirlar xulq-atvoridagi ijobiy fazilatlarning shakllanishini nazariy nuqtai nazardan o'rganish, shuningdek, ularning rivojlanishida ijtimoiy va etnopsixologik omillarning roli va xususiyatlarini aniqlash.

Jahon miqyosida o'smirlarning xulq-atvorida ijobiy fazilatlarni shakllantirish masalasi shaxsning ijtimoiy va psixologik kamolotini ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. O'smirlarning o'z maqsadlariga erishishda, tanlagan faoliyatlariga mas'uliyat bilan yondashishda, duch kelgan qiyinchilik va to'siqlarga qaramay vazifalarni qat'iyat bilan bajarishda, shijoat, tirishqoqlik va tashabbuskorlikni namoyon etishida ijobiy fazilatlarning yetakchi o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, ularning ijtimoiy va shaxsiy faoliyatidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan ijobiy fazilatlarning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Shu bois, bugungi kunda yoshlarni mas'uliyatli, ijobiy xulq-atvorli, tirishqoq va tashabbuskor shaxslar sifatida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'smirlar xulq-atvoridagi ijobiy fazilatlarning shakllanishi masalasi psixologiya sohasida keng tadqiq etilgan bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar turli nazariy yo'nalishlar, prinsiplar va yondashuvlar asosida olib borilgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu yondashuvlar hozirgi davrgacha o'z ilmiy va tarixiy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Darhaqiqat, o'smirlarning xulq-atvoridagi ijobiy fazilatlarni ularning shaxsiy va ijtimoiy faoliyatidagi muvaffaqiyatning asosiy psixologik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, o'smirlarning



ijobiy xulq-atvori va uning ijtimoiy hamda etnopsixologik tafovutlarini chuqur va aniq tadqiq etish zamonaviy psixologik va pedagogik izlanishlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'smirlarning ijobiy xulq-atvorini rivojlantirishda oilaning tarbiyaviy funksiyasi, ta'lim muassasalaridagi psixologik-pedagogik yondashuvlar hamda jamoaviy faoliyatning ta'siri beqiyosdir. Mazkur omillar birgalikda o'smirda o'z-o'zini nazorat qilish, mas'uliyat, empatiya, hamkorlik va ijtimoiy javobgarlik kabi ijobiy sifatlarni shakllantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va dinamik bosqichi bo'lib, bu davrda xulq-atvor, ijtimoiy moslashuv, emotsional barqarorlik hamda o'z-o'zini anglash jarayonlari faol shakllanadi. Statistik ma'lumotlar bu davrning ahamiyatini raqamli ifodada ham tasdiqlaydi. Jumladan, BMT Bolalar jamg'armasi (UNICEF, 2023) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 10–19 yoshdagi o'smirlar umumiy aholining 16,3 % ini tashkil etadi, bu esa 5,8 milliondan ortiq bolalar va o'smirlarni qamrab oladi. Demak, o'smirlik yoshi mamlakat demografik tarkibining muhim ijtimoiy-psixologik segmentidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning ijtimoiy faolligi, axloqiy qarashlari va o'zini baholash darajasi ularning xulq-atvoriga bevosita ta'sir etadi. Dovepress (2021) jurnalida chop etilgan xalqaro tadqiqot natijalariga ko'ra, maktab yoshidagi o'smirlarning 10–20 % gacha bo'lgan qismida emotsional yoki xulq-atvor muammolari kuzatiladi. Bu holat shuni anglatadiki, o'smirlar ijtimoiy o'zgarishlarga, rollar almashuviga va shaxsiy identifikatsiya jarayonlariga psixologik jihatdan sezgir guruh hisoblanadi.

Shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2022) ma'lumotlariga ko'ra, o'smirlarning faqat 0,7 % qismi jismoniy sog'lom turmush tarzining barcha tavsiya etilgan mezonlariga to'liq amal qiladi. Bu ko'rsatkich o'smirlarning o'z salomatligi va xulqiy barqarorligiga yetarlicha e'tibor bermayotganini ko'rsatadi. O'z navbatida, jismoniy faoliyatning yetishmasligi ruhiy holat, o'zini baholash va ijobiy ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalliy miqyosda ham o'smirlar psixologik farovonligiga oid tahlillar mavjud. 2023 yilda O'zbekistonda o'tkazilgan "Maktab o'quvchilari ruhiy salomatligi monitoringi" natijalariga ko'ra, so'rovda ishtirok etgan 22 854 o'quvchining 8,7 % "maktab jamoasiga mansublik hissini sezmayman", 13,1 % esa "o'zimni maktabda begona his qilaman" deb javob bergan (UzDaily, 2023). Ushbu ko'rsatkichlar o'smirlar orasida ijtimoiy ajralish (social isolation) muammosi mavjudligini ko'rsatadi.

Shu jihatdan, ijobiy xulq-atvorni shakllantirishning psixologik asoslari nafaqat individual omillar (motivatsiya, o'z-o'zini nazorat qilish, empatiya) bilan, balki ijtimoiy determinantlar — oila, ta'lim muassasasi, jamoatchilik tashkilotlari va axborot muhitining ta'siri bilan ham belgilanadi. Bu fikr A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi va E. Eriksonning psixososial rivojlanish modeli bilan uyg'unlashadi. Har ikkala yondashuvga ko'ra, ijobiy xulq-atvor shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi va ijtimoiy model (oilal, maktab, jamoa) bu jarayonning eng muhim regulyatori sifatida qaraladi.

Umuman olganda, o'smir shaxsida ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish shaxsning psixososial, motivatsion va ma'naviy jihatdan yetuklashuviga xizmat qiluvchi uzluksiz psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning barkamol inson sifatida shakllanishida asosiy omillardan biridir.

Statistik tahlillar o'smirlarning ijobiy xulq-atvori va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash, emotsional savodxonlikni oshirish, oilaviy va maktab muhitini psixologik jihatdan sog'lomlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa o'smirning shaxsiy kamoloti, ma'naviy yuksalishi va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy yo'nalishdir.

O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng mas'ul bosqichi bo'lib, bu davrda ijobiy xulq-atvorning shakllanishi shaxsning ijtimoiy yetuklikka erishishida, o'z-o'zini anglashida va ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda o'smir yoshdagi bolalar aholining taxminan 16 % ini tashkil etadi va ularning psixologik farovonligi jamiyatning kelajakdagi barqaror taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega.

UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan so'rov natijalariga ko'ra, o'smirlarning 13–17 % qismi maktab jamoasiga to'liq mansublik hissini sezmaydi, 15 % dan ortig'i esa xavotir yoki depressiv holatlarni boshdan kechiradi. Bu esa ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda psixologik yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va emotsional barqarorlikni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish, oilaviy nazoratning sustligi va ijtimoiy muhitdagi nomuvofiqlik o'smirlarning o'z-o'zini nazorat qilish, ijtimoiy faollik va empatiya kabi ijobiy fazilatlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois o'smirlar xulq-atvorini ijobiy yo'nalishga yo'naltirishda psixologik treninglar, ijtimoiy loyihalar, sport va madaniy faoliyatlarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR


O'smirlar xulq-atvoridagi ijobiy fazilatlarining shakllanishi masalasi bo'yicha turli nazariy yondashuvlar mavjud. Shunga ko'ra, ijobiy fazilatlar o'smir shaxsida mustaqil psixik tuzilma sifatida, ba'zi hollarda esa motivatsion yoki emotsional voqelik, hatto miya faoliyatining funksional holati sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlar qatorida o'smirlarning ijobiy xulq-atvorini baholash, ularda aqliy va ixtiyoriy boshqaruv jarayonlarining shakllanishi, o'zini o'zi nazorat qilish mexanizmlarining rivojlanishi, shuningdek ijobiy fazilatlar va shaxs xususiyatlari o'rtasidagi ijtimoiy va etnopsixologik bog'liqlikni tahlil qilish masalalari alohida o'rin tutadi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, o'smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish — bu kompleks psixologik jarayon bo'lib, unda oila, ta'lim muassasalari, psixologik xizmatlar va keng jamoatchilikning hamkorligi zarur. Faqat tizimli yondashuv orqaligina o'smirlarning motivatsiyasini oshirish, ularni ijtimoiy hayotga faol qo'shish va sog'lom shaxs sifatida shakllantirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Эриксон Э. Г. Детство и общество. — Москва: Прогресс, 1996. — 384 с.
2. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. — 247 p.
3. Выготский Л. С. Психология развития человека. — Москва: Смысл, 2005. — 512 с.
4. Kohlberg L. Essays on Moral Development: The Philosophy of Moral Development. Vol. 1. — San Francisco: Harper & Row, 1981. — 409 p.
5. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. — Москва: Смысл, 2004. — 352 с.
6. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. — 330 p.
7. Кон И. С. Психология юношеского возраста: проблемы формирования личности. — Москва: Просвещение, 1989. — 223 с.
8. Havighurst R. J. Developmental Tasks and Education. — New York: Longmans, Green and Co., 1972. — 208 p.
9. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. — Москва: Прогресс, 1994. — 480 с.
10. Damon W., Eisenberg N. Handbook of Child Psychology: Social, Emotional, and Personality Development. — 5th ed. — New York: Wiley, 1998. — 1044 p.
11. Мудрик А. В. Социализация и воспитание подростков. — Москва: Академия, 2007. — 256 с.
12. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. — New York: Free Press, 1965. — 418 p.
13. Личко А. Е. Психопатии и акцентуации характера у подростков. — Ленинград: Медицина, 1983. — 256 с.
14. Berk L. E. Development Through the Lifespan. — 7th ed. — Boston: Pearson, 2018. — 864 p.
15. Шнейдер Л. Б. Психология подросткового возраста. — Москва: Академический проект, 2008. — 368 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.